

Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar klinik ordinaturasiga kirish test sinovlarida **BOLALAR VA O'SMIRLAR GIGIYENASI** fanidan foydalaniladigan test varianti tafsiloti

1. Test variantining qo'llanish maqsadi

Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda bolalar va o'smirlar gigiyenasi faniga oid umumta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2009-yil 18-dekabrda VMQ-319-son qarori bilan tasdiqlangan "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risida Nizom";

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida"gi 2024-yil 17-iyuldagi 238-son buyrug'i;

Bolalar va o'smirlar gigiyenasi faniga oid amaldagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.

3. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi

Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kod	Tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi
	<i>Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fan sifatida</i>
1.1	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanning ilmiy-tadqiqot metodlari. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanining rivojlanish tarixi. Olimlarning Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fani rivojiga qo'shgan hissalarini.
1.2	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi mutaxassisining asosiy ish faoliyatida qonunchilik asoslari
1.3	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi mutaxassisining ish yuritish shakllari va usullari
1.4	Bolalar va o'smirlar jihozlari ishlab chiqarish ustidan Davlat sanitariya nazorati
1.5	Turli ta'lim muassasalarida davlat sanitariya nazorati
1.6	Yuqori tashkilotlardan kelgan qonuniy xujjatlar, xatlar, buyruqlar, shikoyatlarni ko'rib chiqish
1.7	Bolalar va o'smirlar bo'limi mutaxassisi ishning samaradorligini baholash ko'rsatkichlarning tahlili
1.8	Bolalar va o'smirlar jamoasining salomatlik holati va jismoniy rivojlanishini baholashning metodologik asoslari
1.9	Turli ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlarning salomatlik holatini gigiyenik baholash
1.10	Turli ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlarning antropometrik tekshirish natijalarni gigiyenik tahlil qilish
1.11	Turli ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini gigiyenik baholash
1.12	Turli ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlarning kasallanish materiallarini gigiyenik tahlili qilish
1.13	Turli ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlar orasida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklarning materiallarini tahlil qilish, salomatlik holatini yaxshilash chora tadbirlarni ishlab chiqish
1.14	Turli ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlar va xodimlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish
1.15	Turli ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar va o'smirlar va xodimlar orasida turli viruslar, bakteriyalar (koronavirus) oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish
1.16	Bolalar va o'smirlar jihozlari gigiyenasi
1.17	Bolalar va o'smirlar jihozlari ishlab chiqarish ustidan davlat sanitariya nazorati o'rnatish xujjatlari.
1.18	Bolalar o'yinchoqlarini ishlab chiqarishga qo'yilgan gigiyenik talablar va ularni nazorati
1.19	Bolalar kiyimlarni ishlab chiqarishga qo'yilgan gigiyenik talablar va ularni nazorati
1.20	Bolalar jihozlarni ishlab chiqarishga qo'yilgan gigiyenik talablar va ularni nazorati
1.21	Maktab o'quv qurollarni ishlab chiqarishga qo'yilgan gigiyenik talablar va ularni nazorati
1.22	Bolalar jihozlarining tana holatining shakllanishiga salbiy ta'sirini gigiyenik baholash

5. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1.	quyi kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> – Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanining atamalari, asosiy obyektlar, hodisalar va jarayonlarni bilish; – Bolalar va o'smirlar muassasalarida sharoitlari, umumgigiyenik qonuniyatlar mohiyatini tushunish.
2.	yuqori kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> – Bolalar va o'smirlar muassasalarini sharoitlari bilan ular o'rtasidagi farqi vabog'liqlikni aniqlay olish; – Bolalar va o'smirlar muassasalarini tahlil qilish; – fanga oid turli qiyinlik darajadagi masalalarni yecha olish; – Bolalar va o'smirlar gigiyenasining qonuniyatlar va nazariyalarni, ular orasidagi bog'liqlikni mantiqiy fikrlash, tahlil qila olish.

6. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar

Bolalar va o'smirlar gigiyenasi faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta'lim standartlari, Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fani umumta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab ko'rsatilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar		Kod	
Bolalar va o'smirlar gigiyenasi	Bolalar va o'smirlar muassasalarida sharoitlar haqidagi ma'lumotlarni xulosa qilish kompetensiyasi	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fan sifatida	<p><i>Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fan sifatida</i> Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanning ilmiy-tadqiqot metodlari. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanining rivojlanish tarixi. Olimlarning Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fani rivojiga qo'shgan hissalarini bilish.</p>	1.1.1
			Bolalar va o'smirlar gigiyenasi haqida umumiy tushuncha, Bolalar va o'smirlar muassasalarida zararli va xavfli omillarni tushunish.	1.1.2
	Bolalar va o'smirlar muassasalarida sanitariya nazorat olib borish		Bolalar va o'smirlar gigiyenasi shifokorining ish yuritish shakllari va usullari bilish va tushunish	1.2.1
			Xatlar, shikoyatlar va boshqalarni ko'rib chiqish tartibi haqidagi ma'lumotni bilish.	1.2.2
			Yangi texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish uskunalar, ishchi asboblari, kimyoviy moddalar va materiallarga me'yoriy-texnik hujjatlarni sanitar-epidemiologik ekspertizasini bilish va tushunish	1.2.3
	Bolalar va o'smirlar muassasalarida gigiyenik me'yorlash		Bolalar va o'smirlar muassasalarida muhitni fizik omillari haqidagi ma'lumotni bilish	1.3.1
			Bolalar va o'smirlar muassasalarida muhitda kimyoviy omillar haqidagi ma'lumotni bilish	1.3.2

			Bolalar va o‘smirlar muassasalarida muhitida biologik omil haqidagi ma’lumotni bilish	1.3.3
			Bolalar va o‘smirlar muassasalarida zararli va xavfli omillarni salbiy ta’sirini oldini olish chora tadbirlarni asosiy yo‘nalishlari, usullari va vositalari bilish	1.3.4
I Bolalar va o‘smirlar salomatligiga ishlab chiqarish muhitning ustivor havfli omillarini bilish va tushunish kompetensiyasi	Bolalar va o‘smirlar salomatlik holatini o‘rganishning metodologiya asoslari		Bolalar va o‘smirlarning kasallanishni o‘rganish va tahlil qilish haqidagi ma’lumotni bilish	2.1.1
			Bolalar va o‘smirlarning kasalliklari to‘g‘risida xabar berish va tekshirish tartibini bilish va tushunish	2.1.1
			O‘zR SSV 200-sonli buyruqni bajarish bo‘yicha Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi shifokori-mutaxassislarining ish mazmuni vositalari bilish va tushunish	2.1.2
			Bolalar va o‘smirlarning tibbiy ko‘riklardan o‘tkazishni qonuniy asoslari haqidagi ma’lumotni bilish	2.1.3
			Dastlabki va davriy tibbiy ko‘riklar ustidan nazorat olib borish bosqichlari haqidagi ma’lumotni bilish	2.1.4
			Tibbiy ko‘riklar o‘tkazishda rasmiylashtiriladigan xujjatlarni bilish va tushunish	2.1.5
			Bolalar va o‘smirlarning o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi sanitariya bilimlarini targ‘ibot qilish haqidagi ma’lumotni bilish	2.1.6
Bolalar va o‘smirlarning havo almanishuvi tashkillashtirish kompetensiyasi	Bolalar va o‘smirlar muassasalari holati ustidan sanitar-gigiyenik nazorat		Bolalar va o‘smirlarning muassasalarida sanitariya nazorati haqidagi ma’lumotni bilish	2.2.1
			Bolalar va o‘smirlarning muassasalarida Bolalar va o‘smirlar gigiyenasini bilish va tushunish	2.2.2
Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi haqida bilish va tushunish kompetensiyasi	Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi		Bolalar va o‘smirlar muassasalarida Bolalar va o‘smirlar gigiyenasini bilish va tushunish	3.1.1

Bolalar va o‘smirlar obyektlarni ekologik pasportlar tuzish haqida bilish va tushunish kompetensiyasi	Bolalar va o‘smirlar muassasalarida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish	Bolalar va o‘smirlar muassasalarida Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi haqidagi ma’lumotni bilish	4.1.1
		Bolalar va o‘smirlar muassasalarida sanitar nazoratni bilish va tushunish	4.1.2
Bolalar va o‘smirlar muassasalarida zamonaviy nazariyalari va tasniflari haqida bilish va tushunish kompetensiyasi	Bolalar va o‘smirlar muassasalarida	Tibbiyot xodimlarni Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi haqidagi ma’lumotni bilish	4.2.1
Kognitiv kompetensiya	Mantiqiy fikrlashga asoslangan masala va topshiriqlarni bajarish	Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi fanining nazariya va qonuniyatlar hamda tushunchalar bo‘yicha mantiqiy fikrlashga asoslangan masalalar, grafik va rasmi topshiriqlarni bajara olish.	5.1.1

7. Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Shayxova G.I. Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi. Darslik. – Toshkent. TAFFAKUR-BO‘STONI. 2011yil
2. Shayxova G.I. Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi. Darslik. – Toshkent. Toshkent tezkor bosmaxonasi. 2004-yil

***Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.